“Maxam-Chirchiq” AJning
2024-yil 24-iyuldagi
378-sonli buyrug’iga
2-ilova

# “Maxam-Chirchiq” AJga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish REGLAMENTI

Chirchiq – 2024-yil.

# "Maxam-Chirchiq" AJga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish

# REGLAMENTI

| 1-bob. Umumiy qoidalar | 1-боб. Умумий қоидалар |
|---|---|
| 1. Mazkur Reglament Jamiyat (keyingi o'rinlarda –Jamiyat)ga korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va tegishli ta'sir choralarini ko'rishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan.<br>2. Mazkur Reglament Jamiyatdagi aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar haqida kelib tushgan xabarlar bilan ishlashning asosiy tamoyillari, shuningdek, xabarlarni qabul qilish, ularni ro'yxatdan o'tkazish va ko'rib chiqish, shuningdek, Jamiyat rahbariga hisobot taqdim etish tartibini belgilaydi.<br>3. Mazkur Reglament maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:<br>**ishonch telefoni** – Jamiyatga telefon orqali kelib tushadigan murojaatlarni markazlashgan holda qabul qilish, tasniflash va tizimlashtirish, shuningdek, o'z vaqtida va sifatli ko'rib chiqilishini monitoring qilish imkonini beruvchi tizim;<br>**murojaatchi** – aloqa kanallari orqali Jamiyatdagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida axborot berish uchun murojaat qilgan har qanday jismoniy va (yoki) yuridik shaxs, xodim;<br>**manfaatlar to'qnashuvi** – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;<br>**korrupsiya** – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;<br>**korrupsiyaviy harakatlar** – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi | 1. Мазкур Регламент Жамият (кейинги ўринларда –Жамият)га коррупцияга қарши курашиш, манфаатлар тўқнашувини аниқлаш ва тегишли таъсир чораларини кўришга қаратилган чора-тадбирларнинг самарадорлигини ошириш мақсадида ишлаб чиқилган.<br>2. Мазкур Регламент Жамиятдаги алоқа каналлари орқали коррупциявий хатти-ҳаракатлар ҳақида келиб тушган хабарлар билан ишлашнинг асосий тамойиллари, шунингдек, хабарларни қабул қилиш, уларни рўйхатдан ўтказиш ва кўриб чиқиш, шунингдек, Жамият раҳбарига ҳисобот тақдим этиш тартибини белгилайди.<br>3. Мазкур Регламент мақсадларида қуйидаги асосий тушунчалардан фойдаланилади:<br>**ишонч телефони** – Жамиятга телефон орқали келиб тушадиган мурожаатларни марказлашган ҳолда қабул қилиш, таснифлаш ва тизимлаштириш, шунингдек, ўз вақтида ва сифатли кўриб чиқилишини мониторинг қилиш имконини берувчи тизим;<br>**мурожаатчи** – алоқа каналлари орқали Жамиятдаги коррупциявий хатти-ҳаракатлар тўғрисида ахборот бериш учун мурожаат қилган ҳар қандай жисмоний ва (ёки) юридик шахс, ходим;<br>**манфаатлар тўқнашуви** – шахсий (бевосита ёки билвосита) манфаатдорлик шахснинг мансаб ёки хизмат мажбуриятларини лозим даражада бажаришига таъсир кўрсатаётган ёхуд таъсир кўрсатиши мумкин бўлган ҳамда шахсий манфаатдорлик билан фуқароларнинг, ташкилотларнинг, жамиятнинг ёки давлатнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатлари ўртасида қарама-қаршилик юзага келаётган ёки юзага келиши мумкин бўлган вазият;<br>**коррупция** – шахснинг ўз мансаб ёки хизмат мавқеидан шахсий манфаатларини ёхуд ўзга шахсларнинг манфаатларини кўзлаб моддий ёки номоддий наф олиш мақсадида қонунга хилоф равишда |

manfaatlari yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

**korrupsiyaga oid huquqbuzarlik** – korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

**korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi** – amaldagi qonunchilik va ichki hujjatlarni korrupsiyaviy jihatdan buzilishini bartaraf etish, Jamiyat xodimlari tomonidan yuqori darajada kasbiy va axloqiy faoliyat olib borishlarini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar majmui;

**korrupsiyaviy xavf-xatar** – xodimlar yoki uchinchi shaxslar tomonidan Jamiyat nomidan va (yoki) ularning manfaatlarini ko'zlab korrupsiyaviy harakatlarni sodir etish xavfi;

**taalluqli xabar** – Jamiyatdagi korrupsiyaviy harakatlar va (yoki) manfaatlar to'qnashuvi haqidagi axborotdan iborat bo'lgan xabar;

**xodim** – Jamiyat bilan mehnat munosabatlariga kirishgan shaxs;

**xodimning shaxsiy manfaatdorligi** – xodim tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarishi chog'ida o'zi yoki uchinchi shaxslarning manfaatlari yo'lida xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari, moddiy yoki nomoddiy boyliklar, boshqa mol-mulk va imtiyozlar ko'rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijoriy yoki notijoriy manfaatlari).

4. Jamiyat korrupsiyaviy harakatlar haqida axborot berishga mo'ljallangan aloqa

фойдаланиши, худди шунингдек бундай нафни қонунга хилоф равишда тақдим этиш;

**коррупциявий ҳаракатлар** – ходим томонидан бевосита ёки билвосита шахсан ёки учинчи шахслар орқали пора берувчи манфаатлари йўлида ҳаракат ёки ҳаракатсизлик учун моддий манфаатдор бўлиши, шу жумладан пул, қимматбаҳо қоғоз, бошқа кўринишдаги мулк ва мулкий ҳуқуқлар, мулкий ҳарактердаги хизматлар олиш, талаб қилиш, ундириш, таклиф қилиш ёки бериш, пора бериш ва/ёки олиш ёки бунда воситачилик қилишда, расмиятчиликларни соддалаштириш учун тўловлар ундириш (пора олиш) ва бошқа ноқонуний мақсадларда ўз хизмат вазифаларидан ноқонуний фойдаланиш;

**коррупцияга оид ҳуқуқбузарлик** – коррупция аломатларига эга бўлган, содир этилганлиги учун қонунчиликда жавобгарлик назарда тутилган қилмиш;

**коррупцияга қарши курашиш тизими** – амалдаги қонунчилик ва ички ҳужжатларни коррупциявий жиҳатдан бузилишини бартараф этиш, Жамият ходимлари томонидан юқори даражада касбий ва ахлоқий фаолият олиб боришларини таъминлаш бўйича чора-тадбирлар мажмуи;

**коррупциявий хавф-хатар** – ходимлар ёки учинчи шахслар томонидан Жамият номидан ва (ёки) уларнинг манфаатларини кўзлаб коррупциявий ҳаракатларни содир этиш хавфи;

**тааллуқли хабар** – Жамиятдаги коррупциявий ҳаракатлар ва (ёки) манфаатлар тўқнашуви ҳақидаги ахборотдан иборат бўлган хабар;

**ходим** – Жамият билан меҳнат муносабатларига киришган шахс;

**ходимнинг шахсий манфаатдорлиги** – ходим томонидан ўз хизмат вазифаларини бажариши чоғида ўзи ёки учинчи шахсларнинг манфаатлари йўлида ходимнинг мансаб ёки хизмат мажбуриятларини лозим даражада бажаришига таъсир қилиши мумкин бўлган пул маблағлари, моддий ёки

| | |
|---|---|
| kanallarining ishini quyidagi tamoyillar asosida tashkil etadi:<br>**konfedensiallik va xavfsizlik** – aloqa kanallaridagi xabarlardan foydalanishga ruxsat berilgan Jamiyatning barcha vakolatli shaxslari ushbu xabarlarni vakolatga ega boʻlmagan shaxslarga berish (oshkor qilish) ga haqqi yoʻq. Agar murojaatchi oʻz xabarini yuborganligi xaqida boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga oʻz xohishiga koʻra, jumladan, ehtiyotsizligi natijasida oshkor qilgan boʻlsa, Jamiyat uning oshkor boʻlishiga javobgar boʻlmaydi;<br>**qonuniylik** – Jamiyat aloqa kanallariga kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish, roʻyxatga olish, qayta ishlash va koʻrib chiqish qatʼiy ravishda Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari va ushbu Reglamentga muvofiq amalga oshiriladi;<br>**murojaatchining taʼqib qilinmasligi** – aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar haqida oʻz xohishiga koʻra xabar bergan jismoniy va yuridik shaxs, xususan Jamiyat xodimi xabarning mazmunidan qatʼi nazar biron-bir javobgarlikka tortilmaydi;<br>**murojaatchi bilan majburiy tartibdagi qayta aloqa** – agar xabar anonim boʻlmasa, uni koʻrib chiqish natijalari Jamiyat tomonidan murojaatchiga yetkazilishi lozim;<br>**taʼsir choralarini qoʻllashning majburiyligi** – korrupsiya fakti tasdiqlangan taqdirda, Jamiyat aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish uchun Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq harakat qiladi. | номоддий бойликлар, бошқа мол-мулк ва имтиёзлар кўринишида шахсий наф олиш имконияти (шахсий, ижтимоий, молиявий, сиёсий ва бошқа тижорий ёки нотижорий манфаатлари).<br>4. Жамият коррупциявий ҳаракатлар ҳақида ахборот беришга мўлжалланган алоқа каналларининг ишини қуйидаги тамойиллар асосида ташкил этади:<br>**конфеденциаллик ва хавфсизлик** – алоқа каналларидаги хабарлардан фойдаланишга рухсат берилган Жамиятнинг барча ваколатли шахслари ушбу хабарларни ваколатга эга бўлмаган шахсларга бериш (ошкор қилиш) га ҳаққи йўқ. Агар мурожаатчи ўз хабарини юборганлиги хақида бошқа ходимларга ёки учинчи шахсларга ўз хоҳишига кўра, жумладан, эҳтиётсизлиги натижасида ошкор қилган бўлса, Жамият унинг ошкор бўлишига жавобгар бўлмайди;<br>**қонунийлик** – Жамият алоқа каналларига келиб тушадиган хабарларни қабул қилиш, рўйхатга олиш, қайта ишлаш ва кўриб чиқиш қатъий равишда Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги талаблари ва ушбу Регламентга мувофиқ амалга оширилади;<br>**мурожаатчининг таъқиб қилинмаслиги** – алоқа каналлари орқали коррупциявий хатти-ҳаракатлар ҳақида ўз хоҳишига кўра хабар берган жисмоний ва юридик шахс, хусусан Жамият ходими хабарнинг мазмунидан қатъи назар бирон-бир жавобгарликка тортилмайди;<br>**мурожаатчи билан мажбурий тартибдаги қайта алоқа** – агар хабар аноним бўлмаса, уни кўриб чиқиш натижалари Жамият томонидан мурожаатчига етказилиши лозим;<br>**таъсир чораларини қўллашнинг мажбурийлиги** – коррупция факти тасдиқланган тақдирда, Жамият айбдор шахсларни жавобгарликка тортиш учун Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига мувофиқ ҳаракат қилади. |

| 2-bob. Korrupsiyaga oid xatti-harakatlar haqida axborot berish uchun aloqa kanallari | 2-боб. Коррупцияга оид хатти-ҳаракатлар ҳақида ахборот бериш учун алоқа каналлари |
|---|---|
| 5. Taaluqli xabar quyidagi aloqa kanallaridan yuborilishi mumkin:<br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi (https://pm.gov.uz/) orqali;<br>Jamiyatning rasmiy veb-sayti yoki elektron pochtasi orqali;<br>Jamiyatning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari<br>(veb sayt: http://www.maxam-chirchiq.uz, telegramm https://t.me/maxamchirchirchiqkomplianc, ) orqali;<br>Jamiyatning telefon raqamlari orqali (ichki telefon 35-94, shahardan 70-719-35-94, uyali telefonlardan ishonch va boshqa ish telefon raqamlari orqali);<br>Jamiyatning telegram boti (https://t.me/maxamchirchirchiqkomplianc)<br>Jamiyatga og‘zaki (shaxsan) murojaat qilish;<br>huquqni mahofaza qiluvchi organlar orqali;<br>mazkur Reglamentda ko‘rsatilmagan boshqa aloqa kanallari.<br>6. Jamiyat aloqa kanallari to‘g‘risidagi axborotni rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqdagi sahifa va kanallariga joylashtiradi, shuningdek, xodimlarga davriy ravishda yuboriladigan elektron xatlar tarqatmalariga va o‘quv materiallariga kiritadi, Jamiyat binosida joylashtiriladigan tematik plakatlar va hokazolarda aks ettiradi. | 5. Таалуқли хабар қуйидаги алоқа каналларидан юборилиши мумкин:<br>Ўзбекистон Республикаси Президентининг виртуал қабулхонаси (https://pm.gov.uz/) орқали;<br>Жамиятнинг расмий веб-сайти ёки электрон почтаси орқали;<br>Жамиятнинг ижтимоий тармоқлардаги расмий канал ва саҳифалари<br>(веб сайт: http://www.maxam-chirchiq.uz, телеграмм:https://t.me/maxamchirchirchiqkomplianc ) орқали;<br>Жамиятнинг телефон рақамлари орқали (ички телефон 35-94, шаҳардан 70-719-35-94, уяли телефонлардан ишонч ва бошқа иш телефон рақамлари орқали);<br>Жамиятнинг телеграм боти (https://t.me/maxamchirchirchiqkomplianc)<br>Жамиятга оғзаки (шахсан) мурожаат қилиш;<br>ҳуқуқни маҳофаза қилувчи органлар орқали;<br>мазкур Регламентда кўрсатилмаган бошқа алоқа каналлари.<br>6. Жамият алоқа каналлари тўғрисидаги ахборотни расмий веб-сайт, ижтимоий тармоқдаги саҳифа ва каналларига жойлаштиради, шунингдек, ходимларга даврий равишда юбориладиган электрон хатлар тарқатмаларига ва ўқув материалларига киритади, Жамият биносида жойлаштириладиган тематик плакатлар ва ҳоказоларда акс эттиради. |
| **3-bob. Aloqa kanallari orqali kelib tushayotgan taalluqli xabarlarni qabul qilish** | **3-боб. Алоқа каналлари орқали келиб тушаётган таалluқли хабарларни қабул қилиш** |
| 7. Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi (keyingi o‘rinlarda – Ichki nazorat tuzilmasi) Jamiyatning aloqa kanallaridan kelib tushgan relevant taalluqli xabarlarni ko‘rib chiqishga mas’ul hisoblanadi.<br>8. Jamiyatning quyidagi aloqa kanallaridan | 7. Жамиятнинг Коррупцияга қарши ички назорат тузилмаси (кейинги ўринларда – Ички назорат тузилмаси) Жамиятнинг алоқа каналларидан келиб тушган релевант тааллуқли хабарларни кўриб чиқишга масъул ҳисобланади. |

| | |
|---|---|
| kelib tushgan relevant taalluqli xabarlar Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 maydagi 341-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi Jamiyatlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risida”gi Namunaviy nizom va Jamiyatning jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi nizom talablarida nazarda tutilgan tartibda ro‘yxatga olinadi va rezolyusiya uchun Jamiyat rahbariga chiqariladi:<br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali;<br>Jamiyatning rasmiy veb-sayti yoki elektron pochtasi orqali;<br>Jamiyatning telefon raqamlari orqali (ishonch va boshqa ish telefon raqamlari orqali);<br>Jamiyatga og‘zaki (shaxsan) murojaat qilish;<br>huquqni muhofaza qiluvchi organlar orqali.<br>9. Jamiyatning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanallari, sahifalari va telegram boti orqali kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish uchun Ichki nazorat tuzilmasi mas’ul xodimi tayinlanadi.<br>Bunda, relevant xabar kelib tushganda, Ichki nazorat tuzilmasi mas’ul xodimi murojaatchi bilan elektron yozishma yo‘li bilan yoki telefon orqali bog‘lanib, zarur axborotni aniqlashtiradi, xabarni Reestrda ro‘yxatga oladi va ma’lumotni Jamiyat raxbariga kiritadi.<br>Ichki nazorat tuzilmasi mas’ul xodimi kelib tushadigan xabarlarni dushanbadan jumagacha soat 09:00 dan 18:00 ga qadar tahlil qiladi. Agar xabar ish vaqtidan tashqari paytda kelib tushsa, bu xabar navbatdagi ish kunida aniqlashtirish uchun saqlanadi.<br>10. Agar murojaatchi o‘z xabarini tasdiqlash uchun qo‘shimcha materiallarga, masalan, fotomateriallar, hujjatlar, audio va videoyozuvlarga ega bo‘lsa, murojaatni qabul qilishga mas’ul xodim ularni taqdim etish bo‘yicha foydalaniladigan aloqa kanallarini (telegram boti yoki elektron pochtasi)ni ko‘rsatadi va taqdim etiladigan ma’lumotni konfedensialligini bildiradi. Mazkur ma’lumotlar relevant xabarga ilova sifatida rasmiylashtiriladi.<br>11. Jamiyat rahbari relevant xabarni tezkorlik bilan tahlil qilish va ko‘rib chiqish uchun Jamiyatning Ichki nazorat tuzilmasiga topshiriq tushiradi.<br>12. Jamiyatning Ichki nazorat tuzilmasi relevant xabarni olgandan keyin | 8. Жамиятнинг қуйидаги алоқа каналларидан келиб тушган релевант таааллуқли хабарлар Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 7 майдаги 341-сон қарори билан тасдиқланган “Давлат органларида, давлат муассасаларида ва давлат иштирокидаги Жамиятларда жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари билан ишлаш тартиби тўғрисида”ги Намунавий низом ва Жамиятнинг жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари билан ишлаш тартиби тўғрисидаги низом талабларида назарда тутилган тартибда рўйхатга олинади ва резолюция учун Жамият раҳбарига чиқарилади:<br>Ўзбекистон Республикаси Президентининг виртуал қабулхонаси орқали;<br>Жамиятнинг расмий веб-сайти ёки электрон почтаси орқали;<br>Жамиятнинг телефон рақамлари орқали (ишонч ва бошқа иш телефон рақамлари орқали);<br>Жамиятга оғзаки (шахсан) мурожаат қилиш;<br>ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар орқали.<br>9. Жамиятнинг ижтимоий тармоқлардаги расмий каналлари, саҳифалари ва телеграм боти орқали келиб тушадиган хабарларни қабул қилиш учун Ички назорат тузилмаси масъул ходими тайинланади.<br>Бунда, релевант хабар келиб тушганда, Ички назорат тузилмаси масъул ходими мурожаатчи билан электрон ёзишма йўли билан ёки телефон орқали боғланиб, зарур ахборотни аниқлаштиради, хабарни Реестрда рўйхатга олади ва маълумотни Жамият рахбарига киритади.<br>Ички назорат тузилмаси масъул ходими келиб тушадиган хабарларни душанбадан жумагача соат 09:00 дан 18:00 га қадар таҳлил қилади. Агар хабар иш вақтидан ташқари пайтда келиб тушса, бу хабар навбатдаги иш кунида аниқлаштириш учун сақланади.<br>10. Агар мурожаатчи ўз хабарини тасдиқлаш учун қўшимча материалларга, масалан, фотоматериаллар, ҳужжатлар, аудио ва видеоёзувларга эга бўлса, мурожаатни қабул қилишга масъул ходим уларни тақдим этиш бўйича фойдаланиладиган алоқа каналларини (телеграм боти ёки электрон |

| | |
|---|---|
| 1 (bir) soat ichida uni ilovaga muvofiq shaklda Jamiyatda korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish reestrida (keyingi oʻrinlarda – Reestr) roʻyxatga olishi va ushbu Reglamentning 4-bobiga muvofiq koʻrib chiqishi lozim.<br>13. Jamiyat murojaatchilarga xodim tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy xatti-harakatlar toʻgʻrisida anonim xabarlar qoldirish imkoniyatini beradi.<br>Anonim xabar kelib tushgan taqdirda Jamiyatning ma’sul xodimi, imkon mavjud boʻlgan taqdirda, quyidagilarni amalga oshirishi lozim:<br>Jamiyatga kelib tushgan xabarga javob berish uchun murojaatchi bilan bogʻlana olmasliklari mumkinligi haqida ma’lum qilishi;<br>qoʻshimcha zarur ma’lumot olish imkoniyati boʻlmagan taqdirda xabarni toʻliq va har tomonlama oʻrgana olmasliklarini bildirishi;<br>murojaatchiga u bilan bogʻlanish uchun anonim aloqa kanali tashkil qilishni taklif qiladi (shaxs koʻrsatilmagan elektron pochta manzili, Telegramdagi maxfiy chat va.b.);<br>Murojaatchi oʻz arizasidan voz kechmagan taqdirda, mazkur Reglamentda nazarda tutilgan tartibda xabarni qabul qilishi shart.<br>14. Jamiyat xodimlari tomonidan olingan xabarlarni koʻrib chiqish jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etishning sabab va sharoitlari ham tahlil qilinadi va kelgusida ularning oldini olish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish boʻyicha tadbirlar amalga oshiriladi.<br>15. Olingan xabarlar boʻyicha barcha relevant materiallar, hujjatlar va ma’lumotlar (shu jumladan, qabul qilingan qarorlar va murojaatchilarga yuborilgan javoblar) Murojaatlar bilan ishlash tuzilmasida Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddatga, shu bilan birga 10 (un) yildan kam boʻlmagan muddatga saqlanishi kerak.<br>16. Relevant xabar Jamiyatning hududiy va tarkibiy boʻlinmalarga kelib tushgan taqdirda, uni qabul qilgan mas’ul xodimlar zudlik bilan yozma shaklda hududiy (tarkibiy) boʻlinma rahbari va korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha mas’ulni kelib tushgan xabar toʻgʻrisida xabardor qiladi, ular oʻz navbatida ushbu xabarni Jamiyatning markaziy apparatidagi Ichki nazorat tuzilmasiga yuboradi. Ichki nazorat tuzilmasi olingan xabarni | почтаси)ни кўрсатади ва тақдим этиладиган маълумотни конфеденциаллигини билдиради. Мазкур маълумотлар релевант хабарга илова сифатида расмийлаштирилади.<br>11. Жамият раҳбари релевант хабарни тезкорлик билан таҳлил қилиш ва кўриб чиқиш учун Жамиятнинг Ички назорат тузилмасига топшириқ туширади.<br>12. Жамиятнинг Ички назорат тузилмаси релевант хабарни олгандан кейин 1 (бир) соат ичида уни иловага мувофиқ шаклда Жамиятда коррупцияга оид ҳаракатлар ҳақидаги хабарларни қабул қилиш реестрида (кейинги ўринларда – Реестр) рўйхатга олиши ва ушбу Регламентнинг 4-бобига мувофиқ кўриб чиқиши лозим.<br>13. Жамият мурожаатчиларга ходим томонидан содир этилган коррупциявий хатти-ҳаракатлар тўғрисида аноним хабарлар қолдириш имкониятини беради.<br>Аноним хабар келиб тушган тақдирда Жамиятнинг маъсул ходими, имкон мавжуд бўлган тақдирда, қуйидагиларни амалга ошириши лозим:<br>Жамиятга келиб тушган хабарга жавоб бериш учун мурожаатчи билан боғлана олмасликлари мумкинлиги ҳақида маълум қилиши;<br>қўшимча зарур маълумот олиш имконияти бўлмаган тақдирда хабарни тўлиқ ва ҳар томонлама ўргана олмасликларини билдириши;<br>мурожаатчига у билан боғланиш учун аноним алоқа канали ташкил қилишни таклиф қилади (шахс кўрсатилмаган электрон почта манзили, Telegramдаги махфий чат ва.б.);<br>Мурожаатчи ўз аризасидан воз кечмаган тақдирда, мазкур Регламентда назарда тутилган тартибда хабарни қабул қилиши шарт.<br>14. Жамият ходимлари томонидан олинган хабарларни кўриб чиқиш жараёнида коррупциявий ҳуқуқбузарликларни содир этишнинг сабаб ва шароитлари ҳам таҳлил қилинади ва келгусида уларнинг олдини олиш ҳамда коррупцияга қарши курашиш тизимини такомиллаштириш бўйича тадбирлар амалга оширилади.<br>15. Олинган хабарлар бўйича барча релевант материаллар, ҳужжатлар ва маълумотлар (шу жумладан, қабул қилинган |

| | |
|---|---|
| 11-bobida bayon etilgan tartibga muvofiq koʻrib chiqadi.<br>17. Jamiyatning hududiy va tarkibiy boʻlinmalari oʻzlarining Reestrini yuritadi. | қарорлар ва мурожаатчиларга юборилган жавоблар) Мурожаатлар билан ишлаш тузилмасида Ўзбекистон Республикаси қонунчилигида белгиланган муддатга, шу билан бирга 10 (ун) йилдан кам бўлмаган муддатга сақланиши керак.<br>16. Релевант хабар Жамиятнинг ҳудудий ва таркибий бўлинмаларга келиб тушган тақдирда, уни қабул қилган масъул ходимлар зудлик билан ёзма шаклда ҳудудий (таркибий) бўлинма раҳбари ва коррупцияга қарши курашиш бўйича масъулни келиб тушган хабар тўғрисида хабардор қилади, улар ўз навбатида ушбу хабарни Жамиятнинг марказий аппаратидаги Ички назорат тузилмасига юборади. Ички назорат тузилмаси олинган хабарни 11-бобида баён этилган тартибга мувофиқ кўриб чиқади.<br>17. Жамиятнинг ҳудудий ва таркибий бўлинмалари ўзларининг Реестрини юритади. |
| **4-bob. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar haqidagi xabarlarni koʻrib chiqish** | **4-боб. Коррупциявий хатти-ҳаракатлар ҳақидаги хабарларни кўриб чиқиш** |
| 18. Ichki nazorat tuzilmasiga kelib tushgan barcha relevant xabarlar ushbu tuzilmaning mas’ul xodimlari yoki Jamiyat rahbari topshirigʻiga asosan boshqa boʻlinmalar tomonidan koʻrib chiqiladi.<br>19. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar toʻgʻrisidagi xabarlarni koʻrib chiqish jarayoniga, harakatlari ustidan taalluqli xabar kelib tushgan yoki koʻrib chiqish jarayonida manfaatlar toʻqnashuvi yuzaga kelishi mumkin boʻlgan xodimlarni jalb qilish man etiladi.<br>20. Relevant xabar kelib tushganda, Ichki nazorat tuzilmasi xodimi dastlabki tekshirish oʻtkazib, uning taaluqliligini tahlil qiladi, ya’ni xabarda koʻrsatilgan ma’lumotning Jamiyat tizimiga taaluqli korrupsiyaga oid huquqbuzarlikka va (yoki) manfaatlar toʻqnashuviga tegishliligini текширади.<br>Dastlabki tekshirish relevant xabar Ichki nazorat tuzilmasiga kelib tushgan кундан бошлаб 5 (беш) иш куни ичида амалга оширилади.<br>21. Mazkur Reglamentning 19-bandida nazarda tutilgan dastlabki tekshirish natijalaridan qat’i nazar, bu haqdagi axborot Reestrga kiritiladi.<br>22. Agar Ichki nazorat tuzilmasi xodimi xabar taalluqli emas degan xulosaga kelsa, bu xabar bir ish kuni ichida Jamiyatning tegishli tuzilmasiga | 18. Ички назорат тузилмасига келиб тушган барча релевант хабарлар ушбу тузилманинг масъул ходимлари ёки Жамият раҳбари топшириғига асосан бошқа бўлинмалар томонидан кўриб чиқилади.<br>19. Коррупциявий хатти-ҳаракатлар тўғрисидаги хабарларни кўриб чиқиш жараёнига, ҳаракатлари устидан тааллуқли хабар келиб тушган ёки кўриб чиқиш жараёнида манфаатлар тўқнашуви юзага келиши мумкин бўлган ходимларни жалб қилиш ман этилади.<br>20. Релевант хабар келиб тушганда, Ички назорат тузилмаси ходими дастлабки текшириш ўтказиб, унинг таалуқлилигини таҳлил қилади, яъни хабарда кўрсатилган маълумотнинг Жамият тизимига таалуқли коррупцияга оид ҳуқуқбузарликка ва (ёки) манфаатлар тўқнашувига тегишлилигини текширади.<br>Дастлабки текшириш релевант хабар Ички назорат тузилмасига келиб тушган кундан бошлаб 5 (беш) иш куни ичида амалга оширилади.<br>21. Мазкур Регламентнинг 19-бандида назарда тутилган дастлабки текшириш натижаларидан қатъи назар, бу ҳақдаги |

| | |
|---|---|
| bildirgi asosida o'tkazilishi lozim.<br>23. Agar xabarda korrupsiyaviy xatti-harakatlar va (yoki) manfaatlar to'qnashuvi haqida ma'lumot hamda xizmat tekshiruvini o'tkazish uchun yetarli asoslar mavjud bo'lsa, Ichki nazorat tuzilmasi xodimi ichki idoraviy hujjatda belgilangan tartibda xizmat tekshiruvini o'tkazish tashabbusi bilan chiqadi.<br>24. Relevant xabarlarni mazmunan ko'rib chiqish Jamiyatga kelib tushgan kundan e'tiboran bir oy ichida, tekshirish o'tkazish, qo'shimcha materiallarni so'rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lgan hollarda, ularni ko'rib chiqish muddatlari, jamiyatning rahbari tomonidan istisno tariqasida uzog'i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga (anonim murojaatlardan tashqari) xabar qilinadi.<br>25. Murojaatga javob Ichki nazorat tuzilmasi tomonidan tayyorlanib, Jamiyat rahbari imzosi bilan rasmiylashtiriladi.<br>26. Taaluqli xabarlarni ko'rib chiqish yakunlariga ko'ra o'rganish natijalari va qo'llanilgan ta'sir choralari ko'rsatilgan javob xati tayyorlanadi va belgilangan tartibda murojaatchiga yuboriladi.<br>27. Ijtimoiy tarmoqdagi kanal va sahifalar va telegram-bot orqali kelib tushgan relevant xabarga javob murojaatchiga elektron shaklda ijtimoiy tarmoqdagi kanal va sahifalar yoki telegram-bot orqali yuboriladi. | ахборот Реестрга киритилади.<br>22. Агар Ички назорат тузилмаси ходими хабар тааллуқли эмас деган хулосага келса, бу хабар бир иш куни ичида Жамиятнинг тегишли тузилмасига билдирги асосида ўтказилиши лозим.<br>23. Агар хабарда коррупциявий хатти-ҳаракатлар ва (ёки) манфаатлар тўқнашуви ҳақида маълумот ҳамда хизмат текширувини ўтказиш учун етарли асослар мавжуд бўлса, Ички назорат тузилмаси ходими ички идоравий ҳужжатда белгиланган тартибда хизмат текширувини ўтказиш ташаббуси билан чиқади.<br>24. Релевант хабарларни мазмунан кўриб чиқиш Жамиятга келиб тушган кундан эътиборан бир ой ичида, текшириш ўтказиш, қўшимча материалларни сўраб олиш ёхуд бошқа чора-тадбирлар кўриш зарур бўлган ҳолларда, уларни кўриб чиқиш муддатлари, жамиятнинг раҳбари томонидан истисно тариқасида узоғи билан бир ойга узайтирилиши мумкин, бу ҳақда мурожаат этувчига (аноним мурожаатлардан ташқари) хабар қилинади.<br>25. Мурожаатга жавоб Ички назорат тузилмаси томонидан тайёрланиб, Жамият раҳбари имзоси билан расмийлаштирилади.<br>26. Таалуқли хабарларни кўриб чиқиш якунларига кўра ўрганиш натижалари ва қўлланилган таъсир чоралари кўрсатилган жавоб хати тайёрланади ва белгиланган тартибда мурожаатчига юборилади.<br>27. Ижтимоий тармоқдаги канал ва саҳифалар ва телеграм-бот орқали келиб тушган релевант хабарга жавоб мурожаатчига электрон шаклда ижтимоий тармоқдаги канал ва саҳифалар ёки телеграм-бот орқали юборилади. |
| **5-bob. Hisobdorlik** | **5-боб. Ҳисобдорлик** |
| 28. Reestrdan Ichki nazorat tuzilmasi xodimlari, xabarlarni ko'rib chiqishda ishtirok etgan tegishli boshqa davlat organlari va Jamiyatlarining xodimlari (faqat shunday xabarlarga doir), Jamiyat rahbari foydalanishi mumkin.<br>29. Reestr ma'lumotlari asosida Ichki nazorat tuzilmasi har chorakda Jamiyat rahbariga qabul | 28. Реестрдан Ички назорат тузилмаси ходимлари, хабарларни кўриб чиқишда иштирок этган тегишли бошқа давлат органлари ва Жамиятларининг ходимлари (фақат шундай хабарларга доир), Жамият раҳбари фойдаланиши мумкин.<br>29. Реестр маълумотлари асосида Ички |

| | |
|---|---|
| qilingan korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risidagi xabarlarga taalluqli bo‘lgan hisobotni taqdim etadi va unda quyidagilar ko‘rsatiladi:<br>kelib tushgan taalluqli xabarlar va ko‘rib chiqilgan relevant xabarlar soni;<br>korrupsiyaviy xatti-harakatlar, manfaatlar to‘qnashuvi holatlari tasdiqlangan relevant xabarlar soni;<br>ko‘rib chiqish muddatlari buzilgan relevant xabarlar soni;<br>relevant xabarlarni ko‘rib chiqishning o‘rtacha muddati;<br>murojaatchilar tomonidan eng ko‘p foydalaniladigan aloqa kanallari va boshqa statistik ma’lumotlar. | назорат тузилмаси ҳар чоракда Жамият раҳбарига қабул қилинган коррупциявий хатти-ҳаракатлар тўғрисидаги хабарларга тааллуқли бўлган ҳисоботни тақдим этади ва унда қуйидагилар кўрсатилади:<br>келиб тушган таллуқли хабарлар ва кўриб чиқилган релевант хабарлар сони;<br>коррупциявий хатти-ҳаракатлар, манфаатлар тўқнашуви ҳолатлари тасдиқланган релевант хабарлар сони;<br>кўриб чиқиш муддатлари бузилган релевант хабарлар сони;<br>релевант хабарларни кўриб чиқишнинг ўртача муддати;<br>мурожаатчилар томонидан энг кўп фойдаланиладиган алоқа каналлари ва бошқа статистик маълумотлар. |
| **6-bob. Yakuniy qoida** | **6-боб. Якуний қоида** |
| 30. Mazkur Reglament talablarini buzish belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo‘ladi.<br>31. Mazkur Reglament, murojaatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi o‘zgarganda qayta ko‘rib chiqilishi lozim. | 30. Мазкур Регламент талабларини бузиш белгиланган тартибда жавобгарликка сабаб бўлади.<br>31. Мазкур Регламент, мурожаатлар ва коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги Ўзбекистон Республикасининг қонунчилиги ўзгарганда қайта кўриб чиқилиши лозим. |

“Maxam-Chirchiq” AJga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamentiga 1-ilova

# “Maxam-Chirchiq” AJda korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish va qayd etish REESTRI

| T/r | Xabar kelib tushgan sana | Hudud | Xabarning toifasi (korrupsiyaviy xatti-harakat, manfaatlar to‘qnashuvi) | Murojaatlar bilan ishlash tizimida ro‘yxatga olingan sana va raqami | Xabar yuboril-gan aloqa kanali | Murojaatchi ma’lumotlari (jismoniy yoki yuridik shaxs, qayta aloqa ma’lumotlari) | Xabarning qisqacha mazmuni | Xabar taaluqli bo‘lgan tuzilma | Ko‘rib chiqish natijalari qanoatlantirildi/ tushuntirish berildi/ ko‘rmasdan qoldirildi | Murojaatchiga javob yuborilgan sana va xat raqami | Ijrochi | Xabarni ko‘rib chiqqan tuzilma rahbari | Izoh |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | | | | | | | | | | | | | |
| 2. | | | | | | | | | | | | | |
| ... | | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | | | |